



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 7

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'ZBEK MAQOL VA IBORALARINI ISPAN TILIGA TARJIMA QILISHNING SEMANTIK VA PRAGMATIK MUAMMOLARI

Jo'rayeva Fotima Ashurmurod qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Roman-german filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya. Har bir fan va sohaning o'ziga xos tadqiqot yo'nalishlari hamda muammolar tizimi mavjud. Tarjimashunoslik sohasida ham bir qator dolzarb masalalar uchraydi. Ushbu maqolada o'zbek xalq maqol va iboralarini ispan tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan semantik va pragmatik muammolar tahlil qilinadi. Xususan, maqol va frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish natijasida ma'no, obrazlilik va milliy-madaniy xususiyatlarning yo'qolishi masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maqol, ibora, pragmatik muammo, semantik muammo, frazeologiya

Maqollar qadim zamonlardan buyon xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va uzoq yillik kuzatuvlari asosida shakllanib kelgan. Ular muayyan tugal fikrni qisqa, lo'nda va obrazli shaklda ifodalaydi. Maqollarda har bir so'zning semantik yuklamasi, tarkibiy qismlarning turg'unligi hamda shakliy yaxlitlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, maqollarning mazmuni ularning qo'llanish doirasi va kommunikativ kontekstiga qarab kengayishi yoki qo'shimcha pragmatik ma'no kasb etishi mumkin. Shuning uchun ayrim maqollarni so'zma-so'z tarjima qilish ularning asl mazmuni, milliy-madaniy xususiyati va ta'sirchanligini to'liq ifodalash imkonini bermaydi. O'zbek maqollarini ispan tiliga tarjima qilishda uchraydigan semantik va pragmatik muammolarni quyidagi misollar asosida ko'rib chiqish mumkin.

1. Pragmatik ma'noning yo'qolishi:

O'zbek tilida: *Ko'p gap – eshakka yuk.*

Ispan tilidagi so'zma-so'z tarjimasi: *Hablar demasiado es una carga para el burro.*

Mazkur tarjima grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lsa-da, ispan tilida ko'p gapirishni eshakka ortilgan yuk bilan qiyoslash odatiy obraz hisoblanmaydi. Natijada maqolning milliy obrazlilik, kommunikativ maqsadi va pragmatik ta'siri to'liq namoyon bo'lmaydi. O'zbek maqolida ortiqcha gapirish qoralanib, inson kamgap va mulohazali bo'lishga undaladi. So'zma-so'z tarjimada esa ushbu nasihatimiz mazmun ispan tilida tabiiy anglashilmasligi mumkin.

Ispan tilidagi pragmatik muqobil: *En boca cerrada no entran moscas – “Yopiq og'izga pashsha kirmaydi”.*

Mazkur ispan maqoli sukut saqlash va ortiqcha gapirmaslikning foydasini ifodalaydi. Shu sababli u o'zbek maqolining kommunikativ maqsadiga mos keladi. Biroq “ko'p gapirishning xatoga olib kelishi” ma'nosini aniqroq ifodalash zarur bo'lgan kontekstda *El que mucho habla, mucho yerra – “Ko'p gapirgan ko'p xato qiladi”* maqolidan foydalanish maqsadga muvofiq. Har ikki birlik ispan paremiologiyasida qayd etilgan.



2. Semantik ma'noning yo'qolishi:

O'zbek tilida: *Sabr tagi – sariq oltin.*

Ispan tilidagi so'zma-so'z tarjimasi: *El fondo de la paciencia es oro amarillo.*

Ushbu tarjima grammatik jihatdan tushunarli bo'lsa-da, o'zbek maqolining ko'chma ma'nosi va obrazlilikini ispan tilida tabiiy tarzda ifodalaymaydi. O'zbek xalq tafakkurida "sariq oltin" obrazi sabr-toqatning qadr-qimmati, uning ijobiy natijasi va mukofotini anglatadi. Ispan tilida esa *oro amarillo* birikmasi mazkur ramziy ma'noni avtomatik ravishda yuzaga keltirmaydi. Natijada maqolning asosiy semantik mazmuni xiralashadi.

Ispan tilidagi semantik muqobil: *Con paciencia todo se logra* – "Sabr bilan hamma narsaga erishiladi".

Ushbu maqol sabr-toqat va izchillik orqali kutilgan natijaga erishish mumkinligini bildiradi. Shu jihatdan u *Sabr tagi – sariq oltin* maqolining semantik mazmuniga yaqin turadi. Mazkur ispan maqoli sabrsizlik qilmaslikka undash hamda vaqt va harakat natijasida maqsadga erishilishini ifodalash uchun qo'llanadi.

O'zbek tilining frazeologik birliklari xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi va milliy-madaniy tajribasini o'zida mujassamlashtiradi. Ular tilning obrazli va ta'sirchan ifoda imkoniyatlarini namoyon etadi. O'zbek frazeologik fondida adabiy tilga, shevalarga va tarixiy manbalarga xos bo'lgan ko'plab iboralar mavjud. Bunday birliklar nafaqat til boyligini ko'rsatadi, balki xalqning borliqni idrok etish va baholash xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Ispan frazeologiyasida esa arab tilidan o'zlashgan birliklar, diniy tushunchalar, tarixiy shaxslar nomlari hamda son komponentli iboralar alohida o'rin egallaydi. Bu holat ispan frazeologiyasining tarixiy va madaniy jihatdan boyligini ko'rsatadi. O'zbek va ispan tillari turli til oilalariga mansub bo'lganligi, shuningdek, ikki xalqning milliy-madaniy tajribasi o'zaro farqlanishi sababli tarjima jarayonida ayrim ma'no siljishlari va pragmatik nomuvofiqliklar yuzaga keladi. Buni quyidagi iboralar misolida ko'rish mumkin.

1. Iboralarda pragmatik ma'noning o'zgarishi:

O'zbek tilida: *Yeldek uchmoq.*

Ispan tilidagi so'zma-so'z tarjimasi: *Volar como el viento.*

Mazkur tarjima grammatik jihatdan to'g'ri va umumiy ma'nosi tushunarli bo'lsa-da, ispan tilida u turg'un frazeologik birlikdan ko'ra erkin o'xshatish sifatida qabul qilinishi mumkin. O'zbek tilidagi *yeldek uchmoq* iborasi juda tez harakatlanish, biror joyga shoshilinch ravishda borish ma'nolarini obrazli tarzda ifodalaydi. So'zma-so'z tarjimada ushbu iboraning emotsional-ekspressiv ta'siri qisman kamayadi.

Ispan tilidagi pragmatik muqobil: *Ir como una flecha* – "O'qdek uchmoq".

Mazkur iborada tezlik shamol emas, o'q obrazi orqali ifodalangan. Obrazlar farqlanishiga qaramay, har ikki frazeologik birlikning pragmatik vazifasi – harakatning nihoyatda tez amalga oshirilishini ta'sirchan tarzda ifodalash – o'zaro mos keladi.





2. Iboralarda semantik ma'noning o'zgarishi:

O'zbek tilida: *Qushdek yengil tortmoq.*

Ispan tilidagi so'zma-so'z tarjimasi: *Sentirse ligero como un pájaro.*

Ushbu tarjima grammatik va uslubiy jihatdan tushunarli bo'lsa-da, o'zbekcha iboraning semantik mazmunini to'liq ifodalamaydi. O'zbek tilida *qushdek yengil tortmoq* iborasi insonning tashvish, xavotir yoki og'ir ruhiy holatdan xalos bo'lib, o'zini yengil his etishini anglatadi. Ispan tilidagi so'zma-so'z tarjimada esa jismoniy yengillik yoki erkinlik ma'nosi ustunlik qilishi mumkin.

Ispan tilidagi semantik muqobil: *Quitarse un peso de encima* – “Yelkasidan og'ir yukni olib tashlamoq”.

Ushbu ispan iborasi muammo, tashvish yoki ruhiy bosimdan xalos bo'lib, yengillik his qilish ma'nosini anglatadi. Shu sababli u o'zbek tilidagi *qushdek yengil tortmoq* iborasining semantik va pragmatik mazmunini nisbatan to'liq ifodalaydi. Bu birlik ispan tilida tashvish yoki noqulaylikdan xalos bo'lish ma'nosida qo'llanadi.

Xulosa qilib aytganda, bir tilga xos maqol va frazeologik birliklarni boshqa tilga tarjima qilish murakkab lingvistik hamda madaniyatlararo jarayon hisoblanadi. Tarjimon nafaqat manba va tarjima tillarining grammatik hamda leksik xususiyatlarini, balki ushbu tillar sohiblarining milliy madaniyati, dunyoqarashi va kommunikativ me'yorlarini ham chuqur bilishi lozim. O'zbek maqol va iboralarini ispan tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan semantik va pragmatik muammolarni bartaraf etish uchun so'zma-so'z tarjimadan ko'ra funksional, semantik va pragmatik ekvivalentlik tamoyillariga asoslanish maqsadga muvofiq. Ana shundagina asl birlikning mazmuni, obrazlilik, milliy-madaniy xususiyati va kommunikativ ta'sirini imkon qadar saqlab qolish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari / mas'ul muharrir: Sh. Turdimov. – T.: “Sharq”, 2005. – 512 b.
2. Roser Ripollés y de la Fragua, (1997). Más de 100 refranes y locuciones castellanos y su *clasificación*. *Paremia*, (6), Madrid.
3. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Darslik. – Toshkent, 2012. – 216 b.
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
5. Sabirova N.K. Ispan tilidagi frazeologizmlar va ularning semantik xususiyati hamda tahlili // *Образование наука и инновационные идеи в мире*. – 2025. – № 76. – Ч. 1.

